

JADID MA'RIFATPARVARLARINING MA'NAVIY MEROSINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

XAITOV BAHODIR TURSUNOVICH

*Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti
Gumanitar fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi, dotsent*

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadidchilik harakatining yuzaga kelishi hamda bugungi kunda jadid ma'rifatparvarlari merosining ahamiyati haqida so'z boradi. Jadid ma'rifatparvarlarining ma'naviy merosi bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Kalit so'zlar: jadidchilik harakati, istiqlol, ta'lim tizimi, yangicha qarash, tarbiya, zamonaviy kasb-hunar.

Аннотация. В статье рассматривается возникновение движения джадидов и значение наследия просветителей-джадидов в наши дни. Духовное наследие Нового Просвещения не утратило своего значения и сегодня.

Ключевые слова: джадидское движение, независимость, система образования, новое видение, воспитание, современная профессия.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, jadidchilik harakati va uning namoyondalari nomiga yopishtirilgan tavqi la'nat va soxta yorliqlar olib tashlanib, ularning asl nomlari qayta tiklandi. Tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, faylasuf, huquqshunos, san'atshunos va pedagog olimlar jadidlarning boy ilmiy va adabiy merosini o'rganishda dastlabki natijalarni qo'lga kiritishdi.

2020-yil 8-oktabrda F-5598-sonli “**Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishining qabul qilinishi jadid ma'rifatparvarlarining ilmiy-ma'rifiy merosini o'rganishda hamda qatag'on qurbonlari bo'lgan minglab ma'rifatparvar va vatanparvar bobolarimizning nomlarini o'rganishda muhim qadam bo'ldi.

Shuningdek, 2023-yilning 11-12 dekabr kunlari Toshkentda “Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari” mavzusida xalqaro ilmiy konferensiyasi bo'lib o'tdi.

Yirik amaliy anjumanda o'zbekistonlik olimlar bilan bir qatorda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Turkiya, Rossiya Federasiyası, Vengriya, AQSH, Germaniya, Niderlandiya, Shvesiya, Yaponiya va boshqa mamlakatlardan kelgan taniqli olim va ekspertlar ishtirot etdi. Konferensiya o'z oldiga jadidchilik davrida xotin-qizlar faolligi masalalari, Turkiston jadidchiligining chet elda o'rganilishi, shuningdek, bugungi kunda jadidlar hayoti va faoliyatini o'rganishdagi istiqbolli rejalar bo'yicha fikrlar almashindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yil 12-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining Qurolli Kuchlar va harbiy-ma’muriy sektorlarning 2023-yildagi faoliyati yakunlari va yaqin istiqbolga mo‘ljallangan vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan kengaytirilgan yig‘ilishida harbiy xizmatchilar va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini takomillashtirish, globallashuv jarayonlari hamda odamlar, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongi uchun kurash kuchayib borayotgan hozirgi o‘ta murakkab sharoitda harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaning o‘rni va ahamiyati tobora ortib borayotgani alohida ta’kidlandi¹.

Shu munosabat bilan davlat rahbari yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini qayta ko‘rib chiqish, navqiron avlod vakillarining islohotlar jarayonidagi ishtirokini oshirish, ular o‘z intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun sharoitlar yaratish muhimligiga e’tibor qaratdi. Yoshlarimizda vatanparvarlik, milliy g‘urur va iftihor tuyg‘ularini shakllantirishda buyuk ajdodlarimiz, xususan, jadidchi bobolarimizning ilg‘or g‘oya va qarashlaridan, ma’naviy meroslaridan unumli foydalanish, ularni o‘rganish va targ‘ib qilish muhim o‘rin tutadi.

Dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari insoniyat xavfsizligi va mamlakatlar barqarorligini ta’minalash bilan aloqador muammolarni kun tartibiga olib chiqmoqda. Tobora avj olib borayotgan ma’naviy xurujlar, yot g‘oya va mafkuralar, zararli axborotlar oqimining ta’sirida inson qalbi va ongini zabit etishga harakat ham kengayib bormoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: “Bir haqiqatni hech qachon unutmaylik: biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz. Biz – hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo‘rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli, buyuk xalqmiz” deb alohida ta’kidlaydi².

Vatanimiz o‘zining ko‘p asrlik tarixi davomida ko‘plab mash’um xatarlarni o‘z boshidan o‘tkazgan. Shunday asoratlar tufayli tilimiz, dinimiz va ma’naviyatimiz bir paytlar qanday xavf ostida qolganini barchamiz yaxshi bilamiz. Ana shu fojiali o‘tmish, bosib o‘tgan mashaqqatli yo‘limiz barchamizga saboq bo‘lishi, bugungi voqelikni teran tahlil qilib, mavjud tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bo‘lib yashashga da’vat etishi lozim. O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q³.

Mamlakatimiz chorizm va sovet mustamlakachiligi davrida o‘zining ko‘plab osori-atiqalaridan, milliy-ma’naviy boyligidan judo bo‘ldi. Millatimizni butunlay mavh bo‘lish, Vatanni butkul oyoqosti etilishdan asrab qolish, avlodlarni erk va

¹ B.Xaitov. Jadidchilik harakati namoyondalari. –Chirchiq.: “CHOTQMBY nashriyoti”, 2024, 155-169-b.

² Sh.M.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnoma. 2020-yil 24-yanvar. www.uzfa.uz

³ I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma’naviyat” 2016 y, 4-b.

ozodlik, mustaqillik ruhida tarbiyalash, ma'rifat va taraqqiyotga boshlash XIX asr oxiri va XX asr boshlarida faoliyat olib borgan jadidlar nomi bilan tarixga kirgan milliy ziyolilar zimmasiga tushdi.

“Tariximizning qaysi davrini olmaylik, yurtimizda ilmu ma'rifat va yuksak ma'naviyatga intilish hech qachon to‘xtamaganini, xalqimiz dahosining o‘lmas timsoli sifatida eng og‘ir va murakkab davrlarda ham yaqqol namoyon bo‘lib kelganini ko‘rishimiz mumkin.

Masalan, chorizm mustamlakasi davrida ma'rifat g‘oyasini baland ko‘tarib chiqqan jadid bobolarimizning faoliyati bunga yana bir yorqin misol bo‘la oladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Is’hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma'rifatparvar, fidoyi insonlarning o‘z shaxsiy manfaati, huzur-halovatidan kechib, el-ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o‘chmaydi”⁴.

Ko‘plab jadidlar o‘z hisobidan maktablar ochib, yosh avlodni istiqlolga tayyorladilar, she‘r va maqolalar, sahna asarlari orqali milliy ongni shakllantirishga, milliy g‘urur va iftixon tuyg‘ularini singdirishga urindilar.

O‘z davrida mustamlaka hisoblangan o‘lkamizning o‘zligini saqlab qolishning bitta yo‘li bor, u ham bo‘lsa ma'rifatdir degan g‘oyani ilgari surdilar.

Bugungi zamонавиј та’лим нihoyатда murakkab jarayon bo‘lib, uning samaradorligi pedagog va talaba-o‘quvchi faolliligiga, ta’lim vositalarining mavjudligiga, mazkur jarayonning tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga, jamiyatda ilmli kishilarga bo‘lgan ehtiyojga va boshqa ko‘plab omillarga bog‘liq. Jamiyat doimo o‘zining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ehtiyojlari asosida ta’lim samaradorligi yuqori bo‘lishini talab etadi. Zero, ta’lim sifati yuqori bo‘lgan jamiyatgina rivojlanish pillapoyalaridan yuqori darajaga ko‘tarilishi hech kimga sir emas.

Yangi O‘zbekistonda hozirgi kunda yuksak malakali va olgan bilimlarini amalda qo‘llay oladigan shaxslarga talab kuchayib bormoqda. Bilimdon va tadbirkor, ijtimoiy faol shaxs jamiyat hayotida, mehnatda o‘zining o‘rnini topadi. Mamlakat taraqqiyoti aholi, ayniqsa, yoshlarning siyosiy, ijtimoiy va davlat hayotida nechog‘lik faol ishtirok etishi bilan uzviy bog‘liq. Bunday faollilik vujudga kelishi uchun bilimdon va harakatchan, milliy istiqlol g‘oyasiga sodiq bo‘lgan shaxsni shakllantirish kerak.

Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarini shunday tashkil etish kerakki, u bugungi kun yoshlariга chuqur va asosli ta’lim-tarbiya berish bilan birga ularni keng qamrovli fikrlashga o‘rgatsin. Ta’lim jarayonida talabada mustaqil bilim olish ehtiyojining shakllanib borishi hozirgi kun talabidir.

⁴ I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma'naviyat” 2016 y, 49-b.

Ilg‘or ziyolilar ta’kidlaganidek millatni tarbiya qilish eng muhim masalalardan hisoblanadi: “Millat ma’rifatli kishilarga va xalq foydasini o‘zining har xil shaxsiy manfaatidan, tama’dan ustun qo‘yadigan, millat foydasini ko‘z qorachig‘iday aziz tutadigan millat bahodirlariga muhtoj. Millat otalarga, onalarga, muallimlarga, muallimalarga, murabbiylarga, murabbiyalarga, chinakam adabiy iste’dodlarga, salohiyatlarga muhtoj. Bizning millat ham boshqa millatlardagi kabi himoyasiz, moljoysiz, faqir va ishchi xalqning foydasiga tirishuvchi, besh kambag‘alni bir boy itiga almashtiradigan vaqtlar o‘tganini anglovchi va anglatuvchi yigitlarga muhtoj. Bizning millat ham Pushkinlarga, graf Lev Tolstoylarga, Lermantovlarga muhtoj. Qisqasi, bizning millat ham boshqa millatlarning taraqqiyalariga sabab bo‘lgan chinakam yozuvchilarga, rassomlarga va boshqalarga muhtoj”⁵.

Demakki, ziyolilar fikricha millat tarbiyasida tarbiyachining o‘rni beqiyos ahamiyatga ega. Barcha sharoitlarga ega, moddiy-texnik jihatdan yuqori darajada ta’minlangan muassasada ham tarbiyachining bilimi, saviyasi, o‘z bilimini tinglovchilarga yetkazib bera olish mahorati, tinglovchilarning o‘zlashtirishlarini doimiy nazorat qilish qobiliyati bo‘lsagina maqsadga erishish mumkin.

Shunday ekan tarbiyachilarga bo‘lgan e’tibor va talab har qachongidan ham yuqori bo‘lishi lozim. XXI asrni “globallashuv asri”, “fan-texnika asri”, “axborot asri” kabi nomlar bilan atamoqdamiz. Bu asrda yoshlarni axborot olish manbalari tobora kengayib bormoqda. Shuningdek, ularning tarbiyalariga ta’sir etuvchi holatlar ham ko‘payib bormoqda. Shu sababli ham, tarbiya jarayonlarida ishtirok etuvchi barcha shaxslar, tarbiya masalasiga bee’tibor bo‘lmagan holda, zimmalaridagi yuksak mas’uliyatni chuqur his etishlari darkor.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasining 44-maqsadi ham shu masala bilan chambarchas bog‘liq. Unda quyidagi maqsad keltirilgan: “Maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish”.

Maktabda faoliyat olib borishi uchun har bir fan bo‘yicha mahalliy yoki xalqaro sertifikatsiya talablarini belgilash.

Toifaga ega bo‘lmagan mакtab o‘qituvchilarining bilim va ko‘nikmalarini diagnostikadan o‘tkazish.

Umumta’lim maktablarini, ayniqsa, chekka hududlardagi ta’lim maskanlarini oliy ma’lumotli pedagog kadrlar bilan to‘ldirish ishlarini davom ettirish.

Maktablarda direktor va uning o‘rinbosarlarini tayinlash tizimini maktab o‘qituvchilari va ota-onalarning ishtiroki ta’milanishini nazarda tutgan holda yanada takomillashtirish.

⁵ B.Qosimov. Milliy o‘yg‘onish. –T.: “Ma’naviyat”, 2002, 125-b.

Xalq ta’limi tizimi tuman bo‘linmalari faoliyatini to‘liq raqamlashtirish hisobiga optimallashtirish⁶.

Jadid ma’rifatparvarlarining yana bir yirik orzusi, maqsadi – iqtidorli yoshlarni chet ellarda ta’lim olishiga erisish edi. Zero, yuksak malakali mutaxassislarga ega bo‘lgan millatgina, boshqalar bilan bellash oladi. O‘z vatanini rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqa oladi.

Jadid adiblarining qarashlarini umumlashtirib, yoshlarimizni yuksak ma’naviyatli insonlar sifatida tarbiyalash va voyaga yetkazish uchun quyidagilarni alohida ta’kidlash joiz:

birinchidan: har bir ota-onada farzand tarbiyasida chuqur mas’uliyatni anglagan holda e’tibor qaratishi zarur;

ikkinchidan: maktabgacha ta’lim muassasalari va umumiyl o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachilar hamda pedagoglarimiz har bir bolaning qobiliyat va iste’dodini yuzaga chiqarishda jonbozlik ko‘rsatishlari, shuningdek, har bir bolaga bo‘lajak shaxs sifatida qarashlari kerak;

uchinchidan: ota-onalar o‘z farzandlarini yoshlikdan jismonan baquvvat va kuchli qilib tarbiyalash uchun ularda sog‘lom turmush tarziga, shaxsiy gigiyenaga va o‘z vaqtida to‘g‘ri ovqatlanishga ma’suliyat bilan yetarlicha shart-sharoit yaratib berishi lozim;

to‘rtinchidan: yoshlarimizni o‘z Vatani tarixi bilan yaqindan tanishtirish maqsadida muzeylarga, tarixiy shaharlarga sayohatlarga olib borish muhim ahamiyatga ega;

beshinchidan: yetarli ta’lim olishga imkoniyati yo‘q iqtidorli bolalarni o‘qitishni davlat va jamiyat o‘z qaramog‘iga olib, ularga barcha shart-sharoitlarni yaratib berishi kerak.

Shu narsani unutmaslik lozimki, oilada, ta’lim muassasalarida, jumladan, maktabgacha ta’lim va umumiyl o‘rta ta’lim tizimi – yoshlarimizni har tomonlama o‘sib-ulg‘ayishlarida nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ham aynan shu davrda yoshlarni bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri taqsimlash, ularni bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlari uchun yetarli imkoniyat yaratib berish muhim omil hisoblanadi.

Biz bugun nihol ekib, ertasi kuni undan meva berishni talab qilolmaymiz. Niholni ekkandan so‘ng uni e’tibor bilan parvarish qilishimiz, yozning issiq, qishning sovuq va qirovli kunlaridan asrab-avaylashimiz kerak. Shundagina, u bizga kutilgan natijani beradi.

Shu sababli ham farzand tarbiyasiga faqat bir kishi yoki qaysidir tashkilot yoxud muassasaning ishi sifatida qarash mutlaqo noto‘g‘ri. Bugun biz tarbiyalayotgan yoshlar

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli “Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni 2022-yil 28-yanvar. lex.uz.

jamiyatimizning, vatanimizning ertangi egalaridir. Ularga har birimiz, kim bo‘lishimizdan, qaysi sohada faoliyat olib borishimizdan qat’iy nazar, hech qachon loqaydlik bilan munosabatda bo‘lmashligimiz kerak. Chunki, “har bir millatning taraqqiy va taoliysi yoshlarning ilm va ma’rifatiga, hunar va san’atiga bog‘liqdur”⁷.

Xulosa qilish mumkinki, bugungi O‘zbekiston yosh avlod vakili To‘maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Temur Malik, Najmuddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Bobur singari sarkardalar, Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy, Farg‘oniy, Buxoriy, Termiziy va boshqa ko‘plab buyuk ajdodlarimizning munosib davomchilari bo‘lishlarini istasak bugun ularning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga har qachongidan ham ko‘proq ahamiyat berishimiz darkor.

Shuni aytish lozimki, jadidlar o‘z davrida yoshlaramizni ilmli, savodli qilibgina taraqqiyotga erishish, yurt ozodligini qo‘lga kiritish mumkin ekanligi anglab yetdi. Bu yo‘lda ularni hech bir qiyinchilik yoki muammolar to‘xtata olmadni. Jadidlar zulm va zo‘ravonlikni, sinfiy kurashni, millatni qoq ikkiga ajratib, orasiga nifoq va dushmanlik solishni rad etdilar va haq bo‘lib chiqdilar. Bugun ular muqaddas tutgan yurt ozod va mustaqil bo‘ldi. Ular jon fido etgan istiqlol avlodlarga nasib etdi. Millat va Vatan mustaqilligi yo‘lida fido bo‘lganlar esa shu Millat va Vatan umri qadar boqiydurlar⁸.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli “Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni 2022-yil 28-yanvar. lex.uz.
2. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma’naviyat” 2016-y.
3. Sh.M.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnoma. 2020-yil 24-yanvar. www.uza.uz
4. A.Avlonyi. Tanlangan asarlar. 2-jild. -T.: Ma’naviyat. 2006-y.
5. M.Behbudiy. Tanlangan asarlar. (Tuzatilgan va to‘dirilgan 3 -nashri) T.: “Ma’naviyat” 2006-y.
6. B.Qosimov. Milliy o‘yg‘onish. –T.: “Ma’naviyat”, 2002-y.
7. B.Xaitov. Jadidchilik harakati namoyondalari. O‘quv qo’llanma. –Chirchiq.: “CHOTQMBY nashriyoti”, 2024

⁷ A.Avlonyi. Tanlangan asarlar. 2-jild. -T.: Ma’naviyat. 2006 y, 50-b.

⁸ M.Behbudiy. Tanlangan asarlar. (Tuzatilgan va to‘dirilgan 3 -nashri) T.: “Ma’naviyat” 2006 y, 38-b.